

OILA MUNOSABATLARIDA PSIXOLOGIK YORDAM VA RUHIY SOG'LIQNI E'TIBORSIZ QOLDIRISHNING OQIBATLARI

Orziqulova Ruhshona Odilovna

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Tergov faoliyati" yo'nalishi
3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17606385>

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila munosabatlarida psixologik yordam va ruhiy sog'liqni e'tiborsiz qoldirish hamda ularning oldini olish bo'yicha innovatsion yondoshuvlar haqida ilmiy-amaliy ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, oila munosabatlarida psixologik yordam va ruhiy sog'liqni e'tiborsiz qoldirish bo'yicha metodlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oila, psixologiya, psixologik yordam, psixologik kadrlar, ajrim, depressiya, "mahalla psixologi" instituti, reklama, OAV, faoliyatni baholovchi tizim, voyaga yetmaganlar, maktab, maktabgacha ta'lim, stigma, jamiyat.

Oilaviy munosabatlar jamiyatning asosiy poydevori bo'lib, uning sog'lomligi va barqarorligi xalqning farovonligi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq, so'nggi yillarda O'zbekistonda oilaviy munosabatlarida psixologik yordamning e'tiborsiz qoldirilishi va ruhiy sog'liq muammolarining oshishi kuzatilmoqda. Bu holat oilaviy ajrimlar, bolalarning ruhiy salomatligi hamda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga olib kelmoqda. Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, "Oilaviy munosabatlar jamiyatning asosiy poydevori bo'lib, uning mustahkamligi va barqarorligi davlatning kelajagi uchun muhimdir". Ushbu maqolada oilada psixologik yordamning ahamiyati, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi.

Metodologiya. Oila munosabatlarida psixologik yordam va ruhiy sog'liqni e'tiborsiz qoldirish metodologiyasi haqida gapirar ekanmiz, avvalo, metodologiya so'ziga to'xtalib o'tishimiz kerak. Metodologiya so'zi (metod va ... logiya so'zlaridan) — tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot degan ma'noni bildiradi.

Bilamizki, ko'pchilik yurtimizda kimdir psixologga murojaat etmoqchi bo'lsa uni yo "ruhiy kasal" yoki "jinni" deb o'ylashadi va buning oqibatida u xalqning ba'zi shu kabi so'zlaridan qochib psixolog ko'magidan foydalanishga uyaladi va uning muammosi tobora kuchayadi. Shu sababdan jamiyatda ruhiy salomatlikka oid stigma va noto'g'ri qarashlarni yo'qotish kerak. Buning uchun esa OAV orqali psixologik yordam olishning normal holat ekanini ko'rsatuvchi ijtimoiy reklama va teleko'rsatuvlar qilish lozim. Ikkinchidan, psixologik xizmatlarni maktab

hamda maktabgacha ta'lim tizimiga integratsiya qilish. Ko'pchilik ruhiy muammolar bolalik va o'smirlik davrida boshlanadi. Lekin O'zbekistonda bolalar bog'chasi va maktab tizimida ishlaydigan psixologlar soni kam, faoliyati esa rasmiylashtirilmagan yoki samarali nazorat qilinmaydi. Bunga yechim tarzida ushbu metodlardan foydalansak bo'ladi: Har bir maktab va maktabgacha ta'lim muassasasiga kamida bitta malakali psixolog ajratish; psixologlarning ish faoliyatini baholovchi tizim joriy etish; ota-onalar va o'qituvchilar uchun ruhiy sog'liq bo'yicha muntazam seminar va treninglar o'tkazish. Uchinchidan, har bir mahallada "mahalla psixologi" instituti joriy etilsin. Har bir oiladagi vaziyatlar o'rganilsa ajrim ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ham kamayadi. Axir Prezidentimiz "Biz har bir oila baxtli bo'lishi uchun eng avvalo insonlarning qalbini, ichki olamini tushunishimiz kerak" deganlarku. To'rtinchidan esa bularning barchasini amalga oshirish uchun bizga yetuk psixolog kadrlar hamda buning ustidan nazorat bo'lmog'i lozim.

Tadqiqot natijasi. Oila munosabatlarida psixologik yordam va ruhiy sog'liqni e'tiborsiz qoldirish mavzusida gapirar ekanmiz yurtimizda 2020-yilda "Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish" dasturi qabul qilindi. 21.10.2024 sanasida "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish" to'g'risida O'RQ-978 qabul qilindi. "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari" to'g'risida Vazirlar Mahkamasi Qarori qabul qilindi. Bunda:

Ta'limning barcha bosqichlarida psixologik xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar uchun muloqot maydoni sifatida faoliyat yuritish, tegishli davlat organlari bilan hamkorlikda ish olib borish;

Bola ruhiyatida salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ladigan omillarni aniqlash uchun ishonch telefoni va "call-center" tashkil etish kabi vazifalar ustuvor qilib belgilandi.

Qo'shimcha tarzda aytadigan bo'lsam dunyo bo'ylab hozirda ajralishlar soni hamda voyaga yetmaganlar jinoyatlari tobora ortib bormoqda. Bularning bari nimadan? Barchasi oila munosabatlarida psixologik yordam va ruhiy sog'liqni e'tiborsiz qoldirilishi natijasida. Jumladan, 2024-yil yanvar-dekabr oyi hisobotiga ko'ra 45,1 ming birlik inson nikohdan ajralgan. Bu esa yaxshi natija emas. Statistika agentligi hisobotiga ko'ra, 2023-yil jinoyat sodir etgan 3599 nafar voyaga yetmaganlarning 82,6 foizi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ulardan 744 nafari 13-15 yosh, 2855 nafari 16-17 yoshlidir. Qizlarning ulushi 8,7 foiz - 314



kishini tashkil etdi. Voyaga yetmaganlarning 57 nafari giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish yoki sotish, 121 nafari o'limga olib kelmaydigan yo'l-transport hodisalari, 4 nafari qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlash yoki sotish kabi jinoyatlarni sodir etishgan. Bularning bari oilaviy muhit nosog'lomligidir.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, oilaviy munosabatlarda psixologik yordamning ahamiyati va ruhiy salomatlik muammolari jamiyatda jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababdan qachonki biz o'z faoliyatimizni daraxtni chirigan mevalarni yulib tashlashdan boshlaverar ekanmiz u yana shu kabi hosilni beraveradi toki uning ildiziga yaxshi e'tibor bermagunimizcha. Bu bilan shuni aytmoqchimanki, biz faoliyatimizni insonlar yoshi ulg'aygandan emas, balkim bolalik onlaridan boshlasak, ular kelajakda jinoyatchi bo'lib yetishmaydilar hamda oilada ajralishlar soni ham kamayadi. Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir hikmati bor: "So'z – gul, ish – meva". O'ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalaringiz qanchalik pishiq-puxta bo'lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Shu sababdan barchamiz bir-birimizga befarq bo'lmaylik!

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. (2020). "Oilaviy munosabatlar jamiyatning asosiy poydevori bo'lib, uning mustahkamligi va barqarorligi davlatning kelajagi uchun muhimdir."
2. Aliev, A. A., & Salisbury, T. T. (2020). Recommendations for Mental Health Reforms in Uzbekistan: A Policy Report. Central Asian Journal of Global Health, 9(1), e513. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9295855/>
3. Gazizova, D., Mazgutov, A., Kharabara, G., & Tsoyi, E. (2011). Mental health in Uzbekistan. International Psychiatry, 8(1), 10–11. <https://ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6734999/>
4. UNICEF Uzbekistan. (2025). Psychosocial support. <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/topics/psychosocial-support>
5. <https://lex.uz/docs/-4367731>
6. <https://lex.uz/docs/-7165389>
7. https://stat.uz/img/infografikalar/demografiya_uzb_p46235.pdf
8. <https://kun.uz/news/2024/02/27/voyaga-yetmaganlar-eng-kop-jinoyat-sodir-etgan-hudud-malum-qilindi>
9. <https://president.uz/oz/lists/view/4041>